



**YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MA'RIFIY
TARAQQIYOTNING HUDUDIY MEXANIZMLARI:
"MA'RIFAT KARVONI" LOYIHASINING XORAZM,
QORAQALPOG'ISTON, QASHQADARYO VA SURXONDARYO
HUDUDLARIDAGI FAOLIYATI TAHLILI"**

Maxfuzaxon Yuldasheva

Ilmiy raxbar: siyosiy fanlar doktori, TDIU dotsenti,

Qo'shieva Sevara Keldibek qizi,

Tadqiqotchi: O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
xuzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va
istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20606842>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 06-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 09-iyun 2026 yil

KEYWORDS

*Ma'rifat karvoni, ma'naviy
targ'ibot, Yangi O'zbekiston,
ijtimoiy faollik.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy
islohotlar jarayonida amalga oshirilayotgan "Ma'rifat
karvoni" loyihasining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati
yoritiladi. Hududlarda aholi bilan muloqot, ilm-
ma'rifatga qiziqishni oshirish, ijtimoiy faollikni
kuchaytirishda ushbu tashabbusning ijobiy ta'siri tahlil
qilingan. Maqola asosida karvon ishtirokchilari
tomonidan olib borilgan ma'naviy targ'ibot ishlari
jamiyatning ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi o'rni
yoritiladi.*

Ma'naviyatsiz taraqqiyot bo'lmaydi. Har qanday iqtisodiy yoki siyosiy islohotning zamirida ma'naviy yuksalish bo'lishi zarur. Darxaqiqat xam shunday. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz ma'naviyatsiz va ma'rifatsiz jamiyatning kelajagi yo'qligini, ma'naviyat – barqaror taraqqiyot poydevori ekanini chuqur anglab yetmoqdamiz." Shu maqsadda o'tkazilayotgan "Ma'rifat karvoni" tadbirlari ham yurtimiz ma'naviy yuksalishning keng qamrovli dasturi sifatida o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Taraqqiyot faqatgina texnika va iqtisodiyot bilan emas, balki mafkura, ma'naviyat va qalblar tarbiyasi bilan ta'minlanadi. Bizning yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning qalbiga ilmiy so'z, ma'naviy ta'sir va milliy iftixorni olib kirish uchun "Tamaddun, madaniyat va ma'rifat karvoni" mamlakatimizning turli hududlariga safari orqali ulkan taassurotlar va yuksak ilhom bag'ishlamoqda.

Joriy yilning 29 may - 08 iyun kunlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati hamda qator tashkilotlar bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida "Tamaddun, madaniyat va ma'rifat" mavzusida "Ma'rifat karvoni" ilmiy-ma'rifiy va madaniy targ'ibot tadbirlari keng miqyosda o'tkazib kelinmoqda. Ma'rifat karvonining asosiy yo'nalishlari "Ma'rifat karvoni" tadbirlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkazilayotgani bilan u mamlakat miqyosidagi ma'naviy uyg'onish harakatini namoyon etadi.

Mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan bu galgi "Tamaddun, madaniyat va ma'rifat" mavzusida "Ma'rifat karvoni" ilmiy-innovatsion, madaniy va ma'rifiy targ'ibot olimlar, ziyolilar, diniy-ma'rifiy hamda madaniyat va san'at sohasi vakillaridan iborat yuzga yaqin targ'ibot guruhi a'zolari jalb etilgan bo'lib, uch yo'nalishga bo'lingan holda tashviqot ishlarini amalga oshirilayotganligi ham uning keng qamrovli va ta'sirli ekanini ko'rsatib turibdi. Mana shu ruhda "Ma'rifat karvoni" loyihasi butun mamlakat bo'ylab haqiqiy uyg'onish maktabiga aylandi. Qoraqalpog'iston va Xorazm, Qashqadaryoyu Surxondaryoda o'tkazilgan tadbirlar esa buning yaqqol isbotidir.

Ta'lim, ma'rifat va milliy o'zlik – Karvonning asosiy g'oyasi! Ushbu karvonning **Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo** viloyatlariga uyushtirilgan safari doirasida aholi, yoshlar va ziyolilar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar **quyidagi yo'nalishlarda ijobiy samara berdi:**

Milliy o'zlik, ma'rifat va tarixi boy madaniyatimizning ilmiy asosda yoritilishi;

Yoshlarda intellektual va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'ruzalar;

Farovon xayotga ilk qadamning asosi ma'rifatdan boshlanishini axoliga tushuntirish ayniqsa, ayollar, yoshlar uchun ijodiy seminarlar orqali shaxsiy rivojlanishga ilhom berish;

Milliy qadriyatlar bilan zamonaviy dunyoqarash uyg'unligini asoslovchi muloqotlarda tarixiy qadriyatlarimizning boqiy ildizlarini yosh avlodga tushuntirishga keng o'rin berilgan.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning buyuk o'tmishimiz – ilhom manbai va ma'naviy kuch-qudratimizdir. Shu boy merosimiz asosida Yangi Renessansni barpo etish – bugungi kunda eng oliy maqsadimizdir." Ma'naviy karvonning muhim qismi sifatida Islom sivilizatsiyasi markazining megaloyihalari aholiga yaqindan tanishtirilmoqda. Qur'oni karim zali, Birinchi va Ikkinchi Renessans ekspozitsiyalari va "Yangi O'zbekiston – Yangi Renessans" mavzusidagi ko'rgazmalar orqali xalqimiz ma'naviy merosining ulug'vorligi namoyon qilinmoqda.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bunyod etilayotgan majmua majmua tariximizda ilgari bo'lmagan ulkan va noyob megaloyiha hisoblanadi. Shu bilan birga xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan zamonaviy O'zbekiston hududida yashagan buyuk olimlar va mutafakkirlarning, jahon tarixida "Sharq uyg'onishi" davrida jahon fani va madaniyatining rivojlanishiga qo'shgan beqiyos hissasini munosib e'tirof etilgan boy ma'naviy merosni targ'ib etishgan qaratilgan bo'lib, markaz mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga, intellektual va ma'naviy salohiyatini asrab avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotiga hissa qo'shish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir loyiha doirasida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatiga bag'ishlangan qo'llanmalar ishtirokchilarga taqdim etilib, maxsus filmlar va targ'ibot roliklarining namoyishlari o'tkazilmoqda.

"Farovon hayot sari ilk qadam" – mahallalarda turmush farovonligini ta'minlash, aholining ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarning o'z-o'zini band qilishiga qaratilgan amaliy tadbirlar o'tkazilyapti. Davlatimiz isloxotlaridan unumli foydalanib turmushiga farovonlik olib kirganlar- xarakat va mexnatning barakasini xis qilganlar, bu yo'lda davlatning qo'llovini o'z xayotida xis qilgan yurtdoshlarimizning bir nechtasini ko'rdik, ular bilan suxbatlashganimizda boqimandalik bir kunlik-mexnatsevarlik esa bir umrlik roxatni olib kelishini ta'kidladilar. Loyixalar doirasidagi savol javoblar munozaralar, ma'naviy suxbatlar-Bu tadbirlar mahallalarda jipslik muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar targ'iboti,

to'y va marosimlarni ixchamlashtirish bo'yicha davra suhbatlari, oilalardagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda psixologik ko'mak ko'rsatishga qaratilgan seminar-treninglar yurdoshlarimiz yashash tarzida maanfatli bo'lishiga ishonchimiz komil. Jumladan, loyiha doirasida mahallalarda aholining ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, yoshlar o'rtasida o'z-o'zini band qilishga ko'maklashish maqsadida mutaxasis va tadbirkorlar ishtirokida amaliy mahorat darslari o'tildi.

Tamadun, madaniyat va ma'rifat karvonining xududlar bo'yicha ilmiy ijtimoiy taxlilini ko'rib chiqsak:

Qoraqalpog'iston Respublikasi. Shuningdek, "Ijtimoiy g'oyalar forumi"da yoshlarning ijtimoiy, ijodiy g'oyalari tinglanib, amalga oshirish uchun tanlab olinmoqda. Bu jarayon yoshlar salohiyatini yuksaltirish bilan birga, ularning jamiyatdagi o'rnini ham mustahkamlaydi. "Yoshlar ma'naviy qudrati – jamiyatning ma'naviy qudrati demakdir. Ularga yetarli imkoniyat yaratish – taraqqiyot kafolati." Temurbeklar maktabida o'tkazilgan "Ijtimoiy g'oyalar forumi" yoshlar bilan ochiq muloqotni ta'minladi. Men shu o'rinda Nukus shaxridagi Temurbeklar maktabi o'quvchilariga ijtimoiy g'oyalarni amalga oshirish yo'llarini tushuntirar ekanman, "Har qanday loyiha, har qanday orzu yoki maqsad – bu ma'naviy tayanchsiz zaifdir. Ilm-fan va ma'naviyat uyg'unligi har bir yigit-qizning qalbida yonishi lozim." degan so'zlarimdan ularning ko'tarninki ruxiyatini xis qildim. "Ijtimoiy g'oyalar forumi" doirasida hududlardagi yoshlarning startap, innovatsion, ilmiy va ma'rifiy yo'nalishdagi kreativ g'oyalari tinglanadi. Ushbu takliflar ekspertlar tomonidan saralanib, amalga tadbiiq etish uchun markazga taqdim etiladi. Yoshlar o'z start-ap g'oyalarni ziyolilar bilan muhokama qilish orqali ularning hayotiy qo'llanma sifatida ishlatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu – amaliy ma'naviyatning yorqin namunasi bo'ldi.

Xorazm viloyati. Mamlakatimizda ma'naviy yuksalishni ta'minlash, milliy o'zligimizni yanada mustahkamlash, yosh avlodni ma'rifat va ma'naviyat ruhida tarbiyalash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmogda bu jarayonda olimlarning bir chetda jamiyatga begonadek qarab turishi chin ma'nodagi ziyolilik emas! Ilmni ulashmog uchun, yurt isloxotlarga daxldorlik, xissi ila Xorazmga yetib keldik va bu yerdagi qizg'in uchrashuvlardan minglab nigoxlarda ilmga tashnalik, ma'rifatga oshnollik, yurtparvarlik yonib turganligini ko'rdim. Ajdodlar merosi va zamonaviy bilimlar uyg'unligi mavzuida ma'ruzalar katta qiziqish uyg'otdi. Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligiga doir muloqotlar o'tkazilib tegishli tavsiyalar berildi. Yangibozor tumanida Farovon xayotga ilk qadam amaliy mashg'ulotlari esa aholi, yoshlar va kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. Mahalla yetakchilari bilan o'tkazilgan seminarlar yoshlar qalbida "bir maqsad – bir yo'l" tamoyilini mustahkamladi. Aynan Respublika "Kitobxon" ko'rik tanlovining bu yilgi g'olibasi, Maftuna Ochilovanning ma'ruzasi esa yana ko'plab yoshlarni mutolaaga chaqiruvchi ma'naviy kuch bo'ldi.

Surxondaryo viloyati. Yoshlar orasida ma'rifatni yuksaltirish, va ongli dunyoqarash mavzulari alohida muhokama qilindi. Karvon a'zolari tomonidan shaxsiy rivojlanish mavzusida o'tkazilgan mahorat darslari, seminar-treninglar yoshlar tomonidan iliq qabul qilindi. Kam ta'minlangan aholi, ayollar va yoshlar bilan uchrashuvlarda ma'rifat olib borish — mafkuraviy immunitetni oshirishda hal qiluvchi omil bo'ldi. Qalblar uyg'onishi, milliy iftixor masalalari asosiy e'tiborda bo'ldi. "Farovon xayotga ilk qadam" loyixasi asosida tomorqasining xar qarichidan unumli foydalanib kelayotgan Zuxra opaning turmush o'rtog'i, "- bizga birgina

turtki kerak edi, mana shu turkini davlat berdi, biz bugun buning foydasini ko'rayapmiz, mexnat bor uyda urush bo'lmaydi, janjal bo'lmaydi, aksincha farovonlik bo'ladi" degan gaplari xaqiqatdan xam davlat ijtimoiy ximoyasi ostida o'z yo'lini topib oilasini iqtisodiy tanglikdan iqtisodiy farovonlikka olib chiqqan insonning xursandchiligi edi.

Qashqadaryo viloyati. "Ma'rifat karvoni" ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni ham qamrab olgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, og'ir kasallik bilan kurashayotgan bemorlar holidan xabar olinib, ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Shuningdek, bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalaridagi tarbiyalanuvchilar holidan xabar olinishi xalqparvarlik an'alarining yorqin namoyonidir. Qishloq aholisi, ayollar va yoshlar bilan amalga oshirilgan muloqotlar orqali huquqiy savodxonlik, shaxsiy rivojlanish va oilaviy barqarorlik mavzularida seminar treninglar o'tkazildi. "Farovon xayotga ilk qadam" loyixasi asosida esa Qashqadaryoning Dexqonobod tumanidagi kasanachilik bilan shug'ullanib ko'plab uy bekalari va nogiron ayollarni ish bilan ta'minlagan, o'zi xam nogiron bo'lib qolganidan so'ng, tushkunlik bilan mexnat orqali kurashib, tadbirkor bo'lish istagida ekanligini aytib maxalliy xokimiyatga murojaat qilgani va ularning bu taklifi qo'llab quvvatlanib bugun oilaviy korxonaga asos solgan Ma'rifat opa kabi ayolning shijoatigayu, matonatiga tan berdim. Uyda bir burchakka berkinib yig'lab, nolib o'tirish emas, o'zini asl inson ekanligini anglash va qimmatli xayotning xar bir onini mazmunli yashamoqqa intilishdir bu! Dili shikasta yarim ko'ngillarga xam o'zida borini ilinib yashamoqdek ma'naviy jasorat bu!

Ma'rifat karvoni doirasida o'tkazilgan ma'ruzalimiz, seminar treninglar, maxorat darslari va tadbirlarning ijtimoiy-siyosiy ta'siri va ilmiy xulosalari quyidagicha:

- "Karvon" fuqarolarda o'z yeri, tili va milliy qadriyatlariga bo'lgan muhabbatni kuchaytirdi;
- Aholi orasida tahlilchan fikrlash, ma'rifiy ong va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi yuksaldi;
- Ayollar va yoshlar uchun ijtimoiy o'zini anglash, salohiyatni ishga solish va shaxsiy maqsadini tanlash va topishda yangi imkoniyatlar ochildi.

Bizning safarimizning haqiqiy natijasi — qalblarga yorug'lik tushirish, millat ichida ma'naviy uyg'onishni kuchaytirish, inson ruhiyatiga ta'sir etish va ma'rifatparvar avlodni shakllantirishdan iborat. Bu karvon faqatgina safari emas — u ulkan harakat, qalblar uyg'onishi va ma'naviy soflanishning namunasi bo'ldi.

Ma'rifat karvoni - ma'naviy uyg'onishning amaliy sahifasi. Ma'rifat karvoni - Yangi O'zbekistonning ma'naviy poydevoridir. Qoraqalpog'iston va Xorazmdagi "Ma'rifat karvoni" tadbirlari Yangi O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotining hayotiy manbai sifatida ahamiyatlidir. Taassurotlarim bir olam, bu ikki qo'xna diyorga maftunlik, tarixiy ildizlariga xurmat, ko'zlarida orzular aks etgan yurtdoshlar ila dillashmoq, tillashmoq va ularga ilmimizni ulashmoq! Bu karvon yoshlarni ma'naviy uyg'onish sari chorlayotgan ezgu karvondir. Uning asosiy g'oyasi esa shunday: "Har bir yosh ma'naviy yetuklikka intilishi kerak. Chunki ma'naviyat - milliy barqarorlikning asosiy poydevoridir."

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy islohotlar mamlakat taraqqiyotining muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. "Ma'rifat karvoni" loyihasi ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, u aholi o'rtasida ma'naviy immunitetni mustahkamlash, milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, tarixiy xotirani asrash va yosh avlodni intellektual salohiyatli shaxslar etib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot jarayonida kuzatilgan holatlar shuni ko'rsatdiki, "Ma'rifat karvoni" doirasida o'tkazilayotgan uchrashuvlar, ilmiy-ma'rifiy muloqotlar, davra suhbatlari, ko'rgazmalar va amaliy tadbirlar joylarda aholining ijtimoiy faolligini oshirish, fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish hamda jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mahallalarda tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar inson qadrini ulug'lash, oila institutini mustahkamlash va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, loyiha doirasida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatining keng targ'ib qilinishi xalqimizning ko'p asrlik ilmiy va madaniy merosini chuqur anglash, buyuk ajdodlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini keng jamoatchilikka yetkazish imkonini bermoqda. Bu esa o'z navbatida Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy omillardan biri hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi globallashuv va axborot oqimlari kuchayib borayotgan sharoitda millatning ma'naviy barqarorligini ta'minlash, yoshlarni turli yot g'oyalar ta'siridan muhofaza qilish va ularda tanqidiy hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "Ma'rifat karvoni" nafaqat madaniy-ma'rifiy loyiha, balki jamiyatning intellektual xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida baholanishi mumkin.

Muallif sifatida mazkur loyihada ishtirok etish jarayonida bir muhim xulosaga kelindiki, millat taraqqiyoti, avvalo, inson ongi va tafakkurining yuksalishi bilan bog'liq. Millatni uyg'otish, uni ilm va ma'rifatga chorchash, yoshlarda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish har bir olim, pedagog va ziyolining fuqarolik hamda kasbiy burchidir. Zero, ilm bilan qurollangan jamiyatgina taraqqiyotning yangi bosqichlariga ko'tarila oladi.

Shunday ekan, "Ma'rifat karvoni" loyihasi doirasida to'plangan tajriba va natijalarni mamlakatning barcha hududlarida keng tatbiq etish, olimlar, tadqiqotchilar, ma'rifat targ'ibotchilari, ijodkor ziyolilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish, Uchinchi Renessans g'oyalarini hayotga tatbiq etish va ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalashga munosib hissa qo'shadi.

Tamaddun, madaniyat va ma'rifat uyg'unligini o'zida mujassam etgan "Ma'rifat karvoni" – bu shunchaki targ'ibot tadbiri emas, balki millatning ma'naviy uyg'onishi, intellektual yuksalishi va barqaror taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'rifat harakatidir. Uning har bir manzilida ilm tarqaladi, har bir uchrashuvida tafakkur yuksaladi, har bir muloqotida esa Yangi O'zbekistonning ma'naviy kelajagi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida inson qadri va manfaatlarini ta'minlash – demokratik islohotlarning bosh maqsadi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 312 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviyat, ma'rifat va Uchinchi Renessans masalalariga bag'ishlangan nutqlari va ma'ruzalari. – Toshkent, 2021–2025.

5. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi. Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati va rivojlanish konsepsiyasi. – Toshkent, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mahalla institutini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishga oid qarorlari to'plami. – Toshkent, 2023.
7. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi. Milliy qadriyatlar va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2023.
8. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 320 b.

